

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGNING ROLI

To'rayeva Sitora Abror qizi.
A.Qodiriy nomidagi Davlat Pedagogika Universiteti
2 – bosqich talabasi
kurbonovazamira250@gmail.com.

Annotatsiya Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonida pedagog shaxsining o' rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Ijtimoiy faollik bolaning jamiyatga moslashuvi, muloqot madaniyatining rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida muhim omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik manbalar tahlil qilinib, pedagogning tarbiyaviy faoliyati orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berildi. Maqolada pedagog tomonidan yaratiladigan ijtimoiy muhit, muloqot jarayoni va tarbiyaviy ta'sirning bolalar faolligiga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda pedagog kasbiy mahoratining muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijtimoiy faollik, pedagog roli, ijtimoiy rivojlanish, tarbiya, muloqot, shaxs shakllanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining muhim jihatlaridan biri – ularning ijtimoiy faolligini shakllantirishdir. Ijtimoiy faollik bolaning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini o'rnatishi, o'z fikrini ifodalashi, muammolarni hal qila olishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi kabi qator xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ahamiyati va metodlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Ijtimoiy faollik bolaning atrof muhit bilan faol muloqotga kirishishi o'z fikrini erkin bayon etishi, jamoada o'z o'rnini topishi va ijtimoiy hayotga moslashish jarayonini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy faollik muhim omillardan biridir. Ijtimoiy faollik ularning muloqot qobiliyatini rivojlantirish o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu fazilatlar bolalarning kelajakdagi bilim olish

jarayoni va jamiyatga integratsiyalashuviga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa maktabga tayyorgarlik davrida ijtimoiy faollik bolaning o'qituvchilar va tengdoshlar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi. Bola uch yoshga to'lganda uning atrofdagilarga munosabati hamda qiziquvchanligi kuchayadi. Shuningdek bolalarning o'rtoqlari bilan birgalikda faoliyatga kirishish moyilligi oshadi. Bu jarayonda ular hamma ham aynan ular kabi o'ylamasligini tushinishadi. Maktabgacha bolalik davrida bolaning nutqi, tafakkuri faol rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv – bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayondir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash egallaydi. Shaxsiyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi bolalarda axloqiy munosabatlarga kirishish jarayonida sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshda allaqachon ushbu munosabatlar kattalarning ma'lum qoidalari, ko'rsatmalari va yordamlari asosida qurilgan bo'ladi. (adpi.uz universaljurnal.uz 344)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagog tomonidan yaratilgan ijtimoiy muhit bolalarda ijtimoiy faollikning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning bolalar bilan do'stona va hurmatga asoslangan muloqoti ularda o'z fikrini erkin ifoda etish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogning shaxsiy namunasi bolalar uchun muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Bandura ta'kidlaganidek, bolalar ko'pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Shu bois pedagogning xulq-atvori, nutqi va munosabati bolalarda ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagog tomonidan tashkil etilgan hamkorlikka asoslangan faoliyatlar bolalarda tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday faoliyat jarayonida bola o'zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi va ijtimoiy faollik tabiiy ravishda shakllanadi.

Bolalarni ijtimoiylashuvi haqida Vygotskiy L.S quyidagicha fikrlarni aytib o'tgan. Bolalar o'zining fikrlash va o'rganish jarayonlarini ijtimoiy muhitda amalga oshiradilar. Ular kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar orqali bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Vygotskiyning ijtimoiy o'zaro ta'sirining bilim o'zlashtirishda ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra bolalar faqat ijtimoiy va madaniy kontekstda rivojlanadilar. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish usullari. O'yin faoliyati – Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy faollikni rivojlantirishning eng samarali usuli ro'li o'yinlar va didaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish - Bolalar suhbatlashish, ularni guruhli mashg'ulotlarga jalb qilish orqali muloqot qobiliyatlari oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagog tomonidan yaratilgan ijtimoiy muhit bolalarda ijtimoiy faollikning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning bolalar bilan do'stona va hurmatga asoslangan muloqoti ularda o'z fikrini erkin ifoda etish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogning shaxsiy namunasi bolalar uchun muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Bandura ta'kidlaganidek, bolalar ko'pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Shu bois pedagogning xulq-atvori, nutqi va munosabati bolalarda ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagog tomonidan tashkil etilgan hamkorlikka asoslangan faoliyatlar bolalarda tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday faoliyat jarayonida bola o'zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi va ijtimoiy faollik tabiiy ravishda shakllanadi.

Olingan natijalar maktabgacha ta'lim sohasidagi mavjud ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Elkonin fikriga ko'ra, bolalik davrida yetakchi faoliyat turi bo'lgan o'yin ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning asosiy vositasidir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda pedagog vositachi sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogning kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy fazilatlarini ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim ekanini ko'rsatadi. Pedagog tomonidan bolaga beriladigan

ijobiy baho va qo'llab-quvvatlash bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu esa ijtimoiy faollikning mustahkam rivojlanishiga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham pedagogning ijtimoiy-tarbiyaviy roli maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maqolada keltirilgan natijalar ushbu ilmiy qarashlarni yana bir bor tasdiqlaydi. (adpi.uz universaljurnal.uz 345)

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda pedagogning roli muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog tomonidan yaratilgan qulay ijtimoiy muhit, samarali muloqot va tarbiyaviy ta'sir bolaning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagog faoliyatini ijtimoiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash jarayonida nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy, L.S. "Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi." Moskva, 1984.
2. Jalolov, J. "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi." Toshkent, 2019.
3. Rubinshteyn, S.L. "Umumiy psixologiya asoslari." Moskva, 1976.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" qarori. Toshkent, 2017.
5. Piaget, J. "Bolalar tafakkuri va aql-idroki." Parij, 1969